



**DALACHOY (HYPERICUM PERFORATUM L.) EKSTRAKTI VA UNING
TIBBIYOTDA ISHLATILISHI.**

**ЭКСТРАКТ ЗВЕРБОЯ ПРОДЫРЯВЛЕННОГО (HYPERICUM
PERFORATUM L.) И ЕГО МЕДИЦИНСКОЕ ПРИМЕНЕНИЕ.**

(HYPERICUM PERFORATUM L.) EXTRACT AND ITS MEDICAL USE.

*Yursunova O'g'iloy biologiya yo'nalishi 3- bosqich talabasi
Farg'ona Davlat Universiteti*

Annotatsiya

Ushbu maqolada dalachoy (*Hypericum perforatum L.*) dorivorlik xususiyati va tibbiyotda ishlatilishi haqida ma'lumotlar berilgan. U dastlab dorivor o'simlik sifatida qadimgi Yunonistonda tanilgan. Rossiya xalq tabobatida dalachoy o'simligini "to'qqiz turdagi kasallikka qarshi o't" deb hisoblanadi va ko'plab kasalliklarni davolash uchun, ayniqsa, dorivor o'tlar aralashmasida keng qo'llaniladi.

Kalit so'zlar: dorivor, antiseptik, zaharli, giperozid, poya, barg, fitonsid, perforatin, flavonoidlar, vitaminlar, alkaloidlar, gul, ko'p yillik.

Аннотация

В данной статье представлены сведения о лекарственных свойствах и применении в медицине зверобоя продырявленного (*Hypericum perforatum L.*). Это растение впервые было признано лекарственным ещё в Древней Греции. В народной медицине России зверобой считается «травой против девяти болезней» и широко используется для лечения различных заболеваний, особенно в составе травяных сборов.



Ключевые слова: лекарственный, антисептик, ядовитый, гиперозид, стебель, лист, фитонцид, перфоратин, флавоноиды, витамины, алкалоиды, цветок, многолетний.

Annotation

This article provides information about the medicinal properties and medical uses of St. John's wort (*Hypericum perforatum* L.). The plant was first recognized as a medicinal herb in Ancient Greece. In Russian folk medicine, St. John's wort is considered "an herb against nine diseases" and is widely used to treat various illnesses, especially as part of herbal mixtures.

Keywords: medicinal, antiseptic, toxic, hyperoside, stem, leaf, phytoncide, perforatin, flavonoids, vitamins, alkaloids, flower, perennial.

Vatanimizda shifobaxsh o'simliklarning 700 dan ziyod turi aniqlangan. Shulardan tabiiy sharoitda o'sadigan va madaniylashtirilgan 120 taga yaqin o'simlik turlaridan ilmiy va xalq tabobatida ishlatiladi. Hozirgi paytda tibbiyotda foydalaniladigan dori vositalarining 40-47% i o'simlik xom ashyolaridan tayyorlanadi. Dorivor giyohlar bilan davolash borasida Abu Ali ibn Sino (Avitsenna)ning "Al-qonun fit-tib" kitobida 476 ga yaqin o't-o'simlikning dorivor jihatari va ulardan foydalanish usullari haqidada ma'lumotlar aytib o'tiladi. Foydali shifobaxsh giyohlardan biri bu dalachoy hisoblanadi.

BOTANIK TAVSIFI

Dalachoy (*Hypericum perforatum* L.)-Hypericaceae oilasiga mansub gulli o'simlik. Uning balandligi 1 metrgacha o'sadigan ko'p yillik o'simlik bo'lib, qirralari atrofida aniq ko'rinadigan qora bezlar, uzun stamens (changchi) va uchta pistil (urug'chi) bo'lgan ko'plab sariq gullar mavjud. Uning novdasi tik turadi, yuqori qismida shoxlangan va tagida yog'ochlashgan bo'ladi. Barglari qarama-qarshi joylashgan, poyasiz, tor va uzunchoq shaklda bo'lib, uzunligi 0,8 dan 3,5 santimetr gacha, kengligi esa 0,3 dan 1,6 santimetr gacha. Barglarning o'tkazuvchi shaffof dog'lari borligi tufayli ular yorug'likka tutilganda "teshilgan" ko'rinadi.



Shuningdek, barglarning chetida qora dog‘lar ham uchraydi. Gulining rangi yorqin sariq bo‘lib, beshta yaproqli yulduz shaklida, diametri 1,5 dan 2,5 santimetr atrofida bo‘ladi. Gul yaproqlarining chetida qora dog‘lar mavjud. O‘zbekistonda dalachoy (*Hypericum*) turkumini 3 ta turi o‘sadi.



1- rasm. O‘simlikning umumiy ko‘rinishi.

KIMYOVIY TARKIBI

O‘simlik tarkibida giperitsin, giperozid, rutin, kvetsitrin va kvercetin flavonoidlari, nikotin kislotasi, tseril spirti, taninlar, ozroq miqdordagi xolin, karotin (55 mg % gacha), C va PP vitaminlari, alkaloidlar va fitontsidlar kabi faol moddalar bor. Dalachoyni ishqalanganda o‘ziga xos yoqimli hid va ozgina biriktiruvchi achchiq qatronli ta‘mga ega. Dalachoy o‘simligining tarkibida oshlovchi moddalar,



flavanoidlar (rutin, giperozid, kvvertsetin, kvvertsetrin va shu kabilar), karotin moddasi, smola, qand, har xil bo'yoqlar, efir moylari va C vitamini bor.

TIBBIYOTDA ISHLATILISHI

Dalachoyning dorivorlik xususiyatlari juda keng va ko'p qirrali. Ushbu o'simlik biriktiruvchi, qon to'xtatuvchi, yallig'lanishga qarshi, og'riq oldiruvchi, antiseptik va siydik haydovchi ta'sirlarga ega. Shuningdek, u ishtahani qo'zg'atadi, to'qimalar tiklanishini tezlashtiradi va asab tizimiga tinchlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi. O'simlik ayollar kasalliklari, oshqozon-ichak trakti, jigar, yurak va siydik pufagi kasalliklarida, shuningdek buyrak toshlarida qo'llaniladi. Eng mashhur dorivor xususiyati uning antidepressant ta'siridir. U yengil va o'rtacha darajadagi depressiyani davolashda samarali bo'lib, kamroq nojo'ya ta'sirga ega. Shu bilan birga u terini himoya qilishda, antibakterial va antioksidant xususiyatlari sababli kosmetikada ham keng qo'llaniladi. Uning asosiy faol moddasidan biri bo'lgan giperitsin depressiyani yengillashtirish, xavotirni kamaytirish va immunitetni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli, dalachoy sifatida tanilgan *hypericum perforatum* ko'plab an'anaviy va zamonaviy tibbiyotda qo'llanilmoqda.

XULOSA

Dalachoy (*Hypericum perforatum* L.) o'simligi inson salomatligi uchun bebaho ne'mat bo'lib, uning ekstrakti tabiiy davolash vositasi sifatida yillar davomida o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Ruhiy salomatlikni tiklash, teri muammolarini bartaraf etish, hamda yallig'lanishga qarshi kurashishda bu o'simlik muhim o'rin egallaydi. Uning dorivor xususiyatlarini ilmiy asoslangan tarzda o'rganish va to'g'ri foydalanish orqali xalq tabobati bilan zamonaviy tibbiyot o'rtasidagi uyg'unlikka erishish mumkin.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xolmatov X.X., Ahmedov O'. A., Musayeva N.A. "Farmakognoziya va botanika asoslari" Toshkent-2017
2. O'. Axmedov, A. Ergashev, A. Abzalov, M. Yulchiyeva, D. Mustafakulov "Dorivor o'simliklar yetishtirish texnologiyasi va ekologiya" Toshkent- 2020.
3. Akopov I.E "Eng muhim mahalliy dorivor o'simliklar va ulardan oqilona foydalanish" Toshkent: Tibbiyot-1986.
4. O.S. Abduraimov, I.E. Mamatqulova, A.V. Mahmudov "Turkiston tizmasida Elwendia persica ning mahalliy populyatsiyasining tuzilishi va fitokenotik tutilishi, O'zbekiston" bioxilma-xilligi .